



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



BAG‘RIKENGLIK TAMOYILLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Raximjonova Malikaxon Abror qizi

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Dinshunoslik”
ta’lim yo‘nalishi I-bosqich talabasi*

Bugungi zamon sharoitida bag‘rikenglik tushunchasining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Turli sivilizatsiyalar, millatlar, e’tiqod va dinlar orasidagi farqlarni hurmat qilish va ularni anglash, jamiyatni yanada barqaror va g‘oyaviy tahdidlarga qarshi kurashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi. Yangi texnologiyalar va globalizatsiya jarayonlari odamlarni bir-biriga yanada yaqinlashtirgan bo‘lsa-da, bir vaqtning o‘zida, bu jarayon ko‘plab ijtimoiy, siyosiy va madaniy ziddiyatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Shunday vaziyatda bag‘rikenglik nafaqat insonlar, balki barcha jamiyatlarning ezgulik yo‘lidagi hamkorligini nazarda tutgan holda muhim qadriyatga aylanmoqda.

“Tolerantlik” so‘zi o‘zbek tilida “bag‘rikenglik” ma’nosini bildirib, insonning shaxsiy tushunchalaridan qat’iy nazar, muayyan fikr va qarashlarni imkon qadar toqatlilik bilan qabul qilishini anglatadi⁸¹. Avvalo shaxsning dini, millati, irqidan qat’iy nazar inson sifatida hurmat qilinishi va o‘zaro munosabatlar bag‘rikenglik tamoyillariga xos bo‘lishi – xalqni bir yerda jamlanishi va bir vatan bo‘lib tinch-totuvlikda yashashiga zamin yaratadi. Ayniqsa, ko‘p millatli va ko‘pkonfessiyali mamlakatlarda turli din va millat vakillarining o‘rtasida mustahkam do‘stlik aloqalarini shakllantirish, sabr-toqatlilik kayfiyatini keng miqyosda yaratish diniy, etnik yoki irqiy mojarolarning kamayishiga ko‘maklashadi.

UNESCO tashkiloti tomonidan dunyoda tinchlik, dinlar va konfessiyalararo muloqotni ta’minalash, millatlar va elatlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilib, hozirda bag‘rikenglikka oid 70 dan ortiq xalqaro hujjatlar qabul qilingan. Ulardan yorqin misol 1995-yil 16-noyabrda Parijda UNESCO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida e’lon qilingan “Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”dir. BMT Bosh Assambleyasining qaroriga binoan, 1997-yildan mazkur sana butun dunyoda “Xalqaro bag‘rikenglik kuni” sifatida nishonlanmoqda. Ushbu Deklaratsiya Kirish qismi va 6 moddani o‘z ichiga oladi.⁸² Ular quyidagicha nomlangan:

1. Bag‘rikenglikning mazmuni; 2. Davlat darajasi; 3. Ijtimoiy o‘lchamlar; 4. Ta’lim; 5. Harakat qilish majburiyati; 6. Xalqaro bag‘rikenglik kuni;

⁸¹ A.Begmamatov. Diniy bag‘rikenglik – azal-azaldan me’ros tushuncha. Millatlararo va diniy bag‘rikenglik – samarali hamkorlikning muhim omili xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami. –Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2023. Bet-283

⁸² <https://tandis.odihr.pl/handle/20.500.12389/19331>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



Uning maqsadi bag'rikenglikni targ'ib qilish va jamiyatda tinchlik, barqarorlik hamda o'zaro hurmatni ta'minlashdan iborat. Ushbu deklaratsiya Bag'rikenglik yilini nishonlash doirasida ishlab chiqilgan. "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi" BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan tavsiyaviy hujjat bo'lib, u ratifikatsiyani talab qilmaydi. U xalqaro huquqiy majburiyatga ega emas, balki davlatlar uchun bag'rikenglik tamoyillarini qo'llab-quvvatlash va ularga amal qilish bo'yicha yo'naliш sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, Deklaratsiya hech qaysi davlat tomonidan ratifikatsiya qilinmagan, lekin barcha BMTga a'zo davlatlar uni qabul qilgan va uning maqsadlarini qo'llab-quvvatlashga chaqirilgan. XXI asrda, ayniqsa, global tahdidlar, shu jumladan, terrorizm, iqlim o'zgarishi, migratsiya va xalqaro iqtisodiy beqarorlik kabi masalalar yuzaga kelishi bilan, "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi" xalqaro tizimda yangi sharoitlarga mos ravishda rivojlanmoqda. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bu tamoyillarni zamонавиy global tahdidlarga javob sifatida yangilab, qo'llab-quvvatlashda davom etmoqda. Ammo dunyoning barcha mamlakatlarida ham aynan tolerantlik g'oyasi keng miqyosda yoyilmaganligi, nafaqat fuqorolar o'rtaсidagi ziddiyatlar balki siyosiy darajadagi harbiy urushlarga va notinchliklarga sabab bo'lib qolmoqda. Misol sifatida Yaqin Sharq mamlakatlaridagi hozirgi ayanchli voqealarni keltirish mumkin. Bunday masalalar o'zaro birodarlik va do'stlik aloqalari bilan bog'lanmas ekan, mintaqadagi tinch va osoyishta davlatlar uchun ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

2016-yil 23-may Rim Papasi Fransisk Vatikanda Al-Azhar Islom universitetining oliy imomi, Misrning oliy ruhoniysi Shayx Ahmad At-Toyyib bilan uchrashuv o'tkazdi. Vatikan uchrashuvni juda samimi, deb baholadi.⁸³ "Bizning uchrashuvimiz xabardir", dedi Papa Shayx Ahmad At-Toyyib bilan uchrashuv boshida. 2019-yil fevral oyida Abu-Dabida Al-Azhar oliy Imomi Rim Papasi Fransisk bilan birgalikda butun dunyo tinchligi va yaxshi qo'shnichilik uchun "Inson birodarligi to'g'risida"gi deklaratsiyani imzoladi. Bu muhim jarayondan so'ng 4-fevral "Xalqaro insoniy birodarlik kuni" deb belgilandi. Rim papasining uchinchi ensiklikasining kirish so'zida ushbu katolik-musulmon qo'shma hujjati haqida gapiradi va Ahmad At-Toyyib haqida bir necha bor eslatib o'tadi. Ushbu uchrashuvlar globallashuv jarayonida ikki din, ya'ni islam va xristianlik dirlari o'rtaсidagi do'stlik ramziga aylandi. Uehrashuvlarning asosiy g'oyalari insonparvarlik, bag'rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilishga qaratilganligi bilan dunyo hamjamiyatida muhim rol o'ynaydi. Bekorga Ahmad At-Toyyib Fransiskning ensiklikasi haqida: "Ushbu xabar yaxshi niyatlari va tirik vijdonli odamlarga qaratilgan bo'lib, u insoniyatga o'z vijdonini qaytaradi", deb ta'kidlab o'tmagan.⁸⁴

⁸³ https://www.bbc.com/russian/news/2016/05/160523_pope_sunni_al_azhar_imam

⁸⁴ <https://www.vaticannews.va/ru/world/news/2020-10/al-tajib-moj-brat-francisk-vozvrashaet-chelovechestvu-sovest.html>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘zbekistonning muhtasham tarixi shuni ko‘rsatadiki, bag‘rikenglik tamoyillari o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketganini ko‘rsatadi. Asrlar osha turli xalq va millatlarni o‘z bag‘rida asragan bu yurt boshqa din vakillariga mehmondo‘stligi va xushmuomalaligi dunyo mamlakatlari tomonidan maqtalgani ham sababsiz emas. Bunday dolzarb masala yuzasidan O‘zbekistonda mustaqillik yillaridan so‘ng shunday toqatlilik ruhini yanada mustahkamlash yuzasidan diniy-ma’rifiy islohotlar va chora-tadbirlar ko‘rib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “*Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi*”.⁸⁵

O‘zbekiston aholisi ko‘p millatli va ular turli dinlarga e’tiqod qilishi (136 dan ziyod millat va 16 ta konfessiya) boisidan jamiyat hayotini totuvlikda asrash va rivojlanish yo‘lida 1992-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitani tashkil etish to‘g‘risida”gi farmonga muvofiq Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi hamda hozirgi kungacha dindorlar masalalari bo‘yicha mutaxassislar aholiga erkin yashashlari, e’tiqodlarini himoya qilishlari va turli e’tiqod vakillarining hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yishda xizmat qilishmoqda. 1991-yilda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonun necha yillar davomida poymol qilingan inson huquqlari, vijdon va e’tiqod erkinliklarini qaytarish va mustahkamlab qo‘yishda muhim o‘ringa ega bo‘ldi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hujjalarni ratifikatsiya qilish orqali o‘z aholisi huquqlarini (e’tiqod masalalarida ham) himoyalash va asrab-avaylashni muhim vazifa sifatida ko‘rdi.

So‘nggi yillardagi o‘zgarishlar natijasida bu qonunga 2021-yil 5-iyul kuni o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilib, yangi tahrirdan chiqdi. Bu amalga oshirilayotgan islohotlardan maqsad, jamiyat hayotida o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik go‘yalarini yoyish va shu orqali hamjihat, tinch va farovon rivojlangan davlatlardan biriga aylantirishdir. Muhim voqealardan yana biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan shu yili 15-16-oktabr kunlari Toshkent va Xiva shaharlarida o‘tkazilgan “Islom – tinchlik va ezgulik dini” nomli xalqaro konferensiyaning bo‘lib o‘tganligidir. Dunyoning 22 mamlakatidan 70 dan ortiq nufuzli davlat arboblari, taniqli ulamolar va rahbarlari tashrif buyurgan bu konferensiya nafaqat bugungi kun sharoitida islom dini qadriyatları va tinchlikparvarlik mohiyatini keng targ‘ib qilish, balki diniy bag‘rikenglik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhini oshirish, yoshlarda radikal g‘oyalarga nisbatan murosasizlik kayfiyatini shakllantirish hamda diniylik va dunyoviylik muvozanatini saqlash yo‘lida muhim vazifalarni xalqaro jamoatchilikka yetkazishdan iborat bo‘ldi. Anjuman doirasida

⁸⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalminal madaniyat markazi tashkil etilganligining 25 yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvidanutqidan. 24.01.2017





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



o‘tkazilgan sho‘ba yig‘ilishlaridan biri ham “Globallashuv sharoitida islom: mo‘tadillik va bag‘rikenglik” deb nomlanishi konferensiyaning bag‘rikenglik g‘oyalarini yetkazib berishda o‘zining tizimli ahamiyatini ko‘rsatib berdi. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi hamda Din ishlari bo‘yicha qo‘mita qator tashkilotlar bilan hamkorlikda “Bag‘rikenglik kuni”ga bag‘ishlab respublikada 2019-yildan buyon “Bag‘rikenglik haftaligi”ni o‘tkazadi. Haftalik doirasida davra suhbatlari, konferensiyalar, fotoko‘rgazma va boshqa madaniy-ma’rifiy, ilmiy-amaliy tadbirlar tashkil etiladi. Joriy yilda ham bag‘rikenglik ruhida bo‘lib o‘tgan haftalik millatlar va konfessiyalar o‘rtasidagi totuvlik hamda hamjihatlikni yanada mustahkamlash, o‘zaro do‘stona aloqalarni rivojlantirish yo‘lida muhim o‘ringa ega bo‘ldi.

Xulosa o‘rnida, ba’zi davlatlarda insonlarni bir-biriga nisbatan sabr-toqatsizligi, irqchilik, millatchilik va diniy adovati sabab ko‘plab mojarolar mintaqaga xavfsizligiga rahna solayotganini ko‘rish mumkin. Shu kabi davatlarda ijtimoiy buzilish, iqtisodiy tomondan ortda qolish singari davlat va jamiyat hayotida salbiy o‘zgarishlar ortib borib, avvalo inson hayoti va manfaatlariga zarar beradi. Bag‘rikenglik g‘oyalari ilgari surilishi, davlat siyosatida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lishi bugungi zamonaning muhim talablariga aylanib bormoqda. Aynan insonparvarlik cho‘qqisi bo‘lmish bag‘rikenglik nafaqat jamiyatlar miqyosida har tomonlana ravnaq topishning poydevoridir balki davlatlarning o‘zaro sherikchilik va qo‘sningchiligi sabab madaniyatlar, dunyoqarashlar almashinuvi, iqtisodiyot gurkirab yashnashiga ham zarur qadamdir. Inson jamiyat va davlatni tashkil etuvchi ekan, uning manfaatlari va qarashlari bag‘rikenglik kabi umumbashariy tamoyillar asosida mustahkamlanmog‘i lozim.

